

## PNEVMONIYANING CHO'ZILGAN KECHISHI XAVF OMILLARI

Alimova Z.J

*Tibbiyot pedagogikasi va davolash fakulteti, davolash ishi yo'nalishi 607-guruh*

G'aniyeva D.K

*Ilmiy rahbar: dotsent 1-Oilaviy tibbiyot kafedrasi, FV va GO, ToshDTU*

Dolzarbligi. Pnevmoniya tashxisining o'z vaqtida qo'yilmasligi antibakterial terapiyaning kech boshlanishiga olib keladi, bu esa, qoida tariqasida, kasallikning cho'zilib kechishiga sabab bo'ladi. Ko'pchilik hollarda pnevmoniya bilan kasallangan bemorni birinchi bo'lib uchastka shifokori ko'radi. Kasallikning oqibati (to'liq sog'ayish, cho'zilgan kechishga o'tishi, asoratlari, o'pkadagi yallig'lanish jarayonining to'liq bartaraf bo'lmasligi) shifokorning bilimi, malakasi va to'g'ri tanlangan diagnostik tekshiruv hajmiga bog'liq.

Maqsad. Pnevmoniyaning cho'zilgan kechishi xavf omillarini tahlil qilish.

Usullar va natijalar. 56-oilaviy poliklinika shifokorlariga murojaat qilgan bemorlarning 216 ta ambulator kartasi tahlil qilinganda, murojaatning birinchi kunida 216 bemordan 69 tasida (32%) pnevmoniya tashxisi qo'yilmagani aniqlandi. Bunda noto'g'ri ravishda O'RVI, o'tkir bronxit, gripp, mioziti va qovurg'alar oralig'i nevrалgiyasi tashxislari qo'yilgan.

Birinchi kuni 52 bemorda (24%) pnevmoniya giperdiagnostikasi kuzatilgan bo'lib, keyinchalik tashxis tasdiqlanmagan va tekshiruv natijasida o'tkir bronxit, O'RVI, gripp, XO'OK va boshqa kasalliklar aniqlangan.

Shunday qilib, murojaatning birinchi kunida pnevmoniya tashxisi bemorlarning yarmidan kam qismida — 32 nafar bemorda (46%) aniqlangan bo'lib, bu asosan kasallikning atipik kechishi va klinik belgilarning kamligi bilan izohlanadi.

Pnevmoniya kechishiga antibiotiklarni tayinlash muddati, ularning to'g'ri tanlanishi va dozasi katta ta'sir ko'rsatadi. O'tkir kechuvchi pnevmoniya bilan kasallangan bemorlarda samarali antibakterial terapiya o'rtacha kasallikning 3-kunidan, cho'zilgan pnevmoniya bilan og'rigan bemorlarda esa 5,4-kunidan boshlangan.

O'tkir kechuvchi pnevmoniyada antibiotiklar o'rtacha 10,2 kun, cho'zilgan pnevmoniyada esa 22,6 kun qo'llanilgan. Antibakterial terapiyaning dastlabki 10 kunida klinik, laborator va rentgenologik ko'rsatkichlarda ta'sir yoki ijobiy dinamikaning yo'qligi cho'zilgan pnevmoniya bilan og'rigan 145 bemorda (67%) va o'tkir kechuvchi pnevmoniya bilan og'rigan 71 bemorda (33%) qayd etilgan. Bu esa cho'zilgan pnevmoniyada 64% holatda, o'tkir kechuvchi pnevmoniyada esa 17,8% holatda antibiotiklarni almashtirish yoki qo'shimcha tayinlashni talab qilgan.

Cho'zilgan pnevmoniyada antibiotiklarni qo'llash bilan bog'liq asoratlari (allergik reaksiyalar, disbakterioz va boshqalar) ko'proq uchragan: mos ravishda 6% va 1,9%.

Pnevmoniyaning cho'zilgan kechishi xavf omillarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, bu holat ko'proq o'rta va keksa yoshdagi erkaklarda uchraydi. Chekish muhim xavf omillaridan biri bo'lib, cho'zilgan pnevmoniya bilan og'rigan bemorlarning 83,9%ida, o'tkir kechuvchi pnevmoniyada esa 42%ida aniqlangan.



Kasbiy zararli omillar (chang, gaz ta'siri) ham cho'zilgan pnevmoniyada ko'proq uchragan — 68,3%, o'tkir kechuvchi pnevmoniyada esa 37,6%. Cho'zilgan pnevmoniya ko'proq gripp va O'RVI fonida rivojlangan.

O'tkir kechuvchi pnevmoniya bilan og'rigan bemorlarning 17%i va cho'zilgan pnevmoniya bilan og'riganlarning 26,6%i spirtli ichimliklarni suiiste'mol qilgan. Cho'zilgan pnevmoniya bilan og'rigan har ikkinchi bemor anamnezida avval o'tkazilgan pnevmoniya qayd etilgan.

Yuqori nafas yo'llaridagi surunkali infeksiya o'choqlari va allergiya har ikki guruhda deyarli bir xil chastotada kuzatilgan. Ayniqsa keksa yoshdagi shaxslarda pnevmoniyaning atipik boshlanishi o'z vaqtida tashxis qo'yish va antibakterial terapiyani erta boshlashni qiyinlashtiradi.

Cho'zilgan pnevmoniya mustaqil kasallik emas, balki pnevmoniyaning bir ko'rinishi hisoblanadi. Agar u XO'OK fonida kechsa, tashxis qo'yishda ma'lum qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tashxis qo'yishda o'pkaning boshqa kasalliklari (sil, disseminatsiyalangan o'pka kasalliklari, o'smalar, tug'ma anomaliyalar) istisno qilinishi lozim.

O'pkadagi cho'zilgan yallig'lanish jarayoni aholi salomatligiga va davlatga sezilarli zarar yetkazadi.

Xulosa. Shunday qilib, tekshirilgan bemorlarda o'pkadagi yallig'lanish jarayonining sekin bartaraf bo'lishiga olib keluvchi muhim xavf omillari sifatida chekish, kasbiy zararli omillar, sovqotish, virusli infeksiyalar, avval o'tkazilgan pnevmoniyalar va alkogolni suiiste'mol qilish aniqlandi.